

UDK.636.933.2

QORAQOLPOQ SUR ZOT TIPIDAGI PO‘LATI RANG-BARANGLIKDAGI QORAKO‘L QO‘YLARNING MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI

Ospanov Asemxan Kadirxanovich

q.x.f.f.d (PhD). Zootinjeneriya va veterinariya kafedrasi assistenti
asemkhan1969@mail.ru

Omarova Marjan Erjan qizi

“Qishloq xo‘jalik hayvonlarini seleksiyasi va naslchilik”
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoq sur zot tipiga mansub rang-barangliklardagi qorako‘l qo‘zilarining gul tiplari bo‘yicha taqsimlanishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: qorako‘l qo‘ylari, zot tipi, qo‘zilar, suruv, rang, rangbaranglik, gul tipi, taqsimlanish, irsiylanish.

Аннотация: В статье были изложены материалы по изучению распределение ягнят каракалпакского породного типа по расцветкам и смушковым типам.

Ключевые слова: каракульских овец, породный тип, ягнята, стада, окраска, расцветка, распределение, наследования.

The summary: In this article materials on learning distribution of lambs of karakalpak pedigree type on colouring and astrakhan types have been stated.

Keywords: karakul sheep, pedigree type, lambs, herds, colouring, a colouring, distribution, inheritance.

Dolzarbliqi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yillarda mamlakatda qorako‘lchilikni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilgan qator qarorlarida tarmoqning eksport salohiyatini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Tarmoqning eksport salohiyati jahon bozorlari talablariga to‘liq javob beradigan sifat va original rang va rangbarangliklardagi qorako‘l terilari ishlab chiqarish bilan bog‘liq.

Sur rangli qorako‘l qo‘ylari terisining qiymati tug‘ilgan vaqtida jun tolasi qoplarning surlik darajasi bilan aniqlanadi va u gul tipi jun tolalari asosi va uch qismida pigmentlar konsentratsiyasining har xilligi bilan farq qiladi. Surlik darajasi

qancha kuchli bo‘lsa, jun tolasi asosi shuncha qoramtir, uch qismi esa oqish bo‘ladi. Jun tolasi asosi va uch qismining rangiga bog‘liq holda sur rangining aniq rangbarangliklari shakllanadi.

Jun tolasining qoramtir asosi va oqish uch qismining rangi, yaltiroqlik bilan uyg‘unlashganda juda chiroyli jilolanib, quyosh nurining teriga tushish yo‘nalishiga qarab yangi tuslarda tovlanadi. Bu xususiyat sur rangli qorako‘l terilarida, xususan qoraqolpoq zot tipidagi qorako‘l terilarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Material va metodikasi. Qoraqolpoq zot tipidagi “po‘lati sur” rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining mahsuldorlik xususiyatlari Qoraqolpog‘iston Respublikasi Ellikqala tumanidagi “Chori surchi” fermer xo‘jaligidagi sur qo‘ylarida o‘rganildi. Qorako‘l mahsuldorligi “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha ko‘llanma” (Toshkent 2015) asosida amalga oshirildi. Olingan ma‘lumotlarga M. Sh. Ismailov., A. Gaziev., A. M. Sherqulov (2016) metodikasi bo‘yicha biometrik ishlov berildi.

Tadqiqot natijalari. Respublikada original rangbaranglikdagi “po‘lati sur” qorako‘l qo‘ylari foydali xo‘jalik belgilarining irsiylanish xususiyatlarini o‘rganish asosida, mazkur rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylari mahsuldorligi va bosh sonini ko‘paytirish maqsadida, fermer xo‘jaligi suruvida qorako‘l qo‘ylarining gul tiplari bo‘yicha irsiylanish xususiyatlari o‘rganildi.

Fermer xo‘jaligi qo‘ylarining gul tipi bo‘yicha taqsimlanish natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tajribadagi qorako‘l qo‘zilarining gul tipi bo‘yicha taqsimlanishi, %

Rangbarangliklar	n	Gul tipi, M±m			
		Yarim doira qalami gul	Qovurg‘asimon qalami gul	Yassi qalami gul	O‘sik gul
Shamchiroq gul	73	65,8±5,55	6,8±2,94	12,3±3,84	15,1±4,19
Po‘lati sur	62	59,7±6,22	14,5±4,47	16,1±4,66	9,7±1,27
O‘rik gul	69	63,8±5,78	7,2±3,11	15,9±4,40	13,1±4,06
Qamar	46	54,3±7,34	13,1±4,97	15,2±5,29	17,4±5,58
Boshqa ranglar	38	52,7±8,06	13,2±5,47	15,7±5,91	18,4±6,28

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaligi suruvidan olingan jami qo'zilarning 25.4 foizi shamchiroq gul rangbaranglikdagi, 21.6 foizini po'lati sur, 23.9 foizini o'rik gul, 15,9 foizini qamar va 13.2 foizini boshqa rangbaranglik (shabdor, chaqir, qambar va b.) dagi qo'zilar tashkil etishi aniqlandi.

Olingan qo'zilarning gul tipi bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganda, yarim doira qalami gul qo'zilar salmog'i shamchiroq gul rangbaranglikdagi qo'zilarida 65,8 foizni tashkil qilib, ular po'lati sur rangbaranglikdagi tengqurlaridan 6,1 %, o'rik gul rangbaranglikdagi tengqurlaridan 2,0 foiz qamar rangbaranglikdagi qo'zilaridan 11,5 foiz, boshqa rangbarangliklardagi tengqurlaridan 13,1 foiz ko'p uchrashi aniqlandi.

Qovurg'asimon gul tipidagi qo'zilar salmog'i esa eng ko'p po'lati sur qo'zilarida 14,5 foizni tashkil etib, ular shamchiroq gul, o'rik gul, shabdor va boshqa rangbaranglikdagi tengqurlaridan mos ravishda 7,7; 7,3; 1,4 va 1,3 yuqori bo'lishi kuzatildi. Yassi qalami gul tipidagi qo'zilar salmog'i ham po'lati sur qo'zilarida yuqori bo'lib, ular taqqoslanayotgan guruhlardagi tengqurlaridan mos ravishda 3,8; 0,2; 0,9 va 0,4 foizga ustunlik qilishdi.

O'sik gul tipidagi qo'zilar salmog'i po'lati sur rangbaranglikdagi qo'zilarida 9,7 foizni tashkil qilib, taqqoslanayotgan guruhlardagi tengqurlaridan mos ravishda 5,4; 3,4; 7,7 va 8,7 foiz kam uchrashi aniqlandi.

Xulosalar. Olingan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, qimmatli gullar: yarim doira, qovurg'asimon va yassi qalami gulli qo'zilar salmog'i, rangbarangligi bo'yicha eng qimmatli hisoblangan shamchiroq gul, po'lati sur va o'rik gul rangbarangliklaridagi qo'zilarida kuzatilishi, xo'jalikda seleksiya ishlari shu gul tiplari bo'yicha olib borilayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmetshiev A.S. Seleksiya karakulskix ovets karakalpaxskogo sura. Alma-Ata. Kaynar. 1989. -152 s.
2. Djumaniyazov Yu.D. Karakulskiy ovets sur Karakalpaxskoy ASSR. Avtoref. kand s.x.nauk. Samarqand. 1970.-22 s.

3. Ismailov M.Sh., Ochilov Q.D., Boltaev A.J., Djambilov B.X. va b. Antiqua sur rang va olmos rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarini yangi ekologik sharoitda urchitish bo'yicha metodik qo'llanma. Metodik qo'llanma. Samarqand. 2016.-52 s.